



## OLIV TA'LIM XIZMATLARI TIZIMIDA RAQOBAT

**G'aniyev G'ayratjon**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0000-2915-5741

[gayratganiyev83@gmail.com](mailto:gayratganiyev83@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta'lim xizmatlari tizimida raqobatning o'рни hamda mamlakat rivojiga ta'sirini takomillashtirishning nazariy va uslubiy asoslari chuqur o'rganilgan. Bugungi davr talablariga javob beradigan, ya'ni nafaqat mamlakat ichkarisida balki xalqaro darajada faoliyat yurita oladigan yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash masalasida nazariy takliflar va tavsiyalar ilgari suriladi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim xizmatlaridagi ta'lim tizimini rivojlantirish va raqobatbardoshligini ta'minlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligiga e'tibor qaratgan.

**Kalit so'zlar:** inson kapitali, mamlakat iqtisodiyoti, oliy ta'lim, xizmat, sifat, raqobat, universitet, ta'lim, tizim, tadbirkorlik universiteti, mahalliy, global strategik hamkorlik.

## КОНКУРЕНЦИЯ В СИСТЕМЕ УСЛУГ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Ганиев Гайратжон**

Самаркандский институт экономики и сервиса

**Аннотация.** В статье глубоко исследуется роль конкуренции в системе услуг высшего образования и теоретико-методологические основы повышения ее влияния на развитие страны. Выдвигаются теоретические предложения и рекомендации по вопросу подготовки высококвалифицированных, конкурентоспособных кадров, отвечающих требованиям сегодняшнего дня, то есть способных осуществлять деятельность не только внутри страны, но и на международном уровне. Результаты исследования обращают внимание на то, что развитие системы образования в сфере услуг высшего образования и обеспечение ее конкурентоспособности имеют большое научное и практическое значение.

**Ключевые слова:** человеческий капитал, национальная экономика, высшее образование, услуга, качество, конкуренция, университет, образование, система, предпринимательский университет, локальное, глобальное стратегическое партнерство.

## COMPETITION IN THE SYSTEM OF HIGHER EDUCATION SERVICES

**Ganiev Gayratjon**

Samarkand Institute of Economics and Service

**Abstract.** The article deeply examines the role of competition in the system of higher education services and the theoretical and methodological foundations for increasing its influence on the development of the country. Theoretical proposals and recommendations are put forward on the issue of training highly qualified, competitive personnel who meet the requirements of today, that is, capable of carrying out activities not only within the country, but also at the international level. The results of the study draw attention to the fact that the development of the education system in the field of higher education services and ensuring its competitiveness are of great scientific and practical importance.

**Keywords:** human capital, national economy, higher education, service, quality, competition, university, education, system, entrepreneurial university, local, global strategic partnership.

### **Kirish.**

Har qanday davlat rivoji va bu davlat muvaffaqiyatining asosiy siri ilm-fan rivoji bilan chambarchas bog'langan. Ilm-fan qayerda rivojlangan bo'lsa, o'sha davlat taraqqiyotida o'z ta'sirini turli ko'rinishlarda namoyon etadi.

Oliy ta'lim – inson kapitalini shakllantirish va mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim omillardan biridir. Globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va mehnat bozoridagi o'zgarishlar oliy ta'lim xizmatlarining sifat va mazmun jihatidan yangilanishini talab qilmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarning oliy ta'lim olishiga katta sharoitlar yaratib berilyotgani tufayli oliy ta'lim muassasalari soni 2,5 barobarga ortib, 200 taga yetdi. Qamrov darajasi esa 9 foizdan 38 foizga oshdi. Eng muhimi, oliy ta'lim olish uchun imtiyozli kreditlash tizimi, ayollarga foizsiz kredit ajratish amaliyoti joriy qilindi (uzmarkaz.uz, 2018).

Mamlakatimiz ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talabiga mos yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Maqsad bitta: oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish hamda zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashdan iborat. Mamlakatimizda ilm-fanga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, ta'lim sohasida keyingi olti yilda ulkan o'zgarishlar, yangilanishlarga boy bo'ldi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Raqobat jamiyat uchun zarur tovar va xizmatlarning bozor va harid narxini belgilaydi. Raqobat ta'sirida tovar va xizmatlarning individual qiymati shakllanadi, daromadlar hajmining mehnat sarfi bo'yicha diferensiasiyasi yuzaga keladi. Tarmoqlararo jihatdan raqobat foydanning o'rtacha me'yorini yuzaga keltiradi, jamiyat extiyoji uchun eng ahamiyatli va zarur bo'lgan tarmoqlarga kapital oqishini rag'batlantiradi. Shubhasiz, raqobat bozor uchun xizmat qiladi: qachon, qanday va qancha tovar va xizmatlarni taklif qilish va ko'rsatishni belgilaydi (Jih va boshq., 1991).

"Raqobat" tushunchasi klassik va neoklassik iqtisodiyot nazariyasining asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, bugungi kunda ham ko'pgina iqtisodchilarning diqqatini tortib kelmoqda va ular tomonidan turlicha talqin etilmoqda.

Smitning ta'rifi bo'yicha inson o'z shaxsiy manfaatini o'ylagan paytda, bu holat tabiiy, yoki aniqrog'i, muqarrar ravishda shunga olib keladiki, odam jamiyat uchun ko'proq naf keltiruvchi mashg'ulotni tanlaydi va shu ish bilan shug'ullanadi, foyda ketidan quvish va raqobat butun jamiyatga naf keltiruvchi faoliyat deb qaraladi (Qarshiyev, 2001).

Raqobat muammolariga bag'ishlangan adabiyotlarda uning tarifiga uchta yondashuv mavjud. Birinchisi raqobat bozorda bellashuv sifatida tavsiflanadi. Ikkinchi yondashuv klassik iqtisodchilar uchun xos bo'lib, raqobat talab va taklifni muvozanatga keltiruvchi bozor mexanizmi sifatida talqin etiladi. Uchinchisi bozorni o'rganishning zamonaviy nazariyasiga asoslangan bo'lib tarmoq bozorining turini ifodalovchi mezon sifatida qaraladi.

Svetunkov (1999) raqobat to'g'risida quyidagi tariflarni keltiradi:

- monopoliyadan holi sharoitda xo'jalik yurituvchi subyektlarning baxslashuvidir;
- ikki yoki undan ortiq xo'jalik yurituvchi subyektlarning bellashuvi, raqib sifatidagi munosabati bo'lib, bir-biridan o'zib ketish orqali yagona maqsad-yuqori foyda olish uchun bozordan siqib chiqarishidir;
- bozorda tovar va xizmat ishlab chiqaruvchilarning bozor ulushini egallash va yuqori foyda olish maqsadida o'zaro bellashuvidir.

S.G. Svetunkov tomonidan keltirilgan tarifga e'tibor beradigan bo'lsak, monopoliyadan holi sharoit ko'zda tutilgan. Bizning fikrimizcha monopoliyadan holi sharoitni monopoliya cheklangan sharoit deb qabul qilish zarur. Chunki monopoliya bozorda raqobatning butunlay yo'q bo'lishini bildirmaydi. Shu bilan birga barcha subyektlar uchun eng qulay sharoit, eng

yuqori daromadga qaratilmasligi kerak, chunki iste'molchi tovar va xizmatlar uchun ma'lum qiymatni belgilaydi.

Yudanovning (2001) fikricha raqobat – iste'molchilarning to'lovga qodir cheklangan talabi uchun bellashuvdir. Muallifning fikricha bu tarif bir qator muhim jihatlarga ega. Birinchidan: gap bozor raqobati xaqida ketmoqda, ya'ni raqobat-bozordagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning faqatgina o'z tovar va xizmatlarini iste'molchilar uchun siljitish jarayonida sodir bo'ladigan bellashuvdir. Ikkinchidan raqobat iste'molchilarning to'lovga qodir cheklangan extiyoji uchun olib boriladi, agarda iste'molchi talabi biror bir subyekt tovar yoki xizmati bilan qondirilsa, qolganlari o'z-o'zidan taklif qilish imkoniyatidan maxrum bo'lishadi. Uchinchidan raqobat faqat bozorning kirib borish mumkin bo'lgan segmentida rivojlanadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur ilmiy maqolada bilish nazariyasining mantiqiy yondashuv, induksiya va deduksiya, qiyosiy va omilli taxlil, zamon va makon, taqqoslash, monografik ko'zatish kabi usullardan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Bugungi globallashuv jarayonlari har bir soha va tizimga o'zining sezilarli darajadagi ta'sirini ma'lum darajada ko'rsatmoqda. Butun dunyo bozorida ta'lim muassalari, korporasiyalar va butun dunyo mamlakatlari uchun malakali mutaxassislar hamda ularni to'g'ri tanlash muammolari raqobatchilikning asosiy drayveri va ustuvorligiga aylanmoqda. Ta'lim tizimidagi yangi o'zgarishlar Shveysariyaning ko'pgina maktablarida ushbu mamlakat fuqarosi bo'lgan o'quvchilar ulushi- 30 foizdan oshmaydi. Bu hukumat vakillarini ona tilida ta'lim sifatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqishga majbur etmoqda. Shunga o'xshash vaziyat maktab ta'limida lider deb tan olingan va boshqa mamlakatlardan ko'plab o'quvchilarni qabul qiladigan Buyuk Britaniyada ham kuzatilmoqda. Oliy ta'limga keladigan bo'lsak, o'z mamlakatidan tashqarida ta'lim oluvchi talabalar soni butun dunyoda *2010 yilda 4 mln kishidan ortgan bo'lsa, eng konservativ baholash bo'yicha bashorat qilinganda 2025 yilga kelganda ular soni 8 mln.ga yetishi tasdiqlangan.*

Bugungi kunda global trendlar ta'siri ostida ta'lim rivojlanishi oliy maktabning faol transformasiyalashuv jarayonini bilan ro'y bermoqda. Jahon ta'lim makonida o'sib borayotgan raqobatchilik sharoitida universitetlar oldida oldingi davrlarga nisbatan ancha jiddiy masalalar turibdi. Ular nafaqat ta'lim va ilmiy ishlarda, balki innovasiyalarni yaratish, iqtisodiy o'sishga ta'sir etish, jahondagi muhim muammolarni hal qilish sohasida ham raqobat qilishga majbur bo'lishmoqda.

Shunga mos tarzda, jahonning yetakchi universitetlari strategik xujjatlarida, rivojlanish dasturlarida, modeli qarorlarida o'z aksini topgan strategik rivojlanishning asosiy yo'nalaishlari belgilab olinmoqda. Bu borada bir muncha ahamiyatli bo'lganlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Global elektron ta'lim makonining shakllanishi, "cheksiz" yangi turdagi ochiq axborot resurslarini yaratish. Bular ichida bir muncha mashhuri bo'lib Coursera (Free Online Courses From Top Universities) hisoblanadi. Bu umuman universitet faoliyati doirasida va imoniyatlari to'g'risidagi tasavvurlarni o'zgartiruvchi jahonda oliy ta'limni transformasiyalovchi eng muhim innovasion trenddir.

Aslida bu - birinchi meta-universitet (Meta University) - universitetlar va korporasiyalar konsorsiumining global tarmog'i g'oyasini amalga oshiruvchi axborot-ta'lim modellaridan biri.

Bunday universitetning maqsadi mintaqaviy va milliy ustuvorliklar - sog'liqni saqlash, ekologiya, xalqaro o'zaro hamkorlik va boshqa bir qator ishlar doirasiga kiruvchi global muammolarni hal etish bo'lishi lozim. AKT- formati borgan sari g'arbiy an'analardagi ta'lim jarayonining realligiga aylanib bormoqda.

Yuqori sifatli ta'lim xizmatlariga zamonaviy sharoitda faqatgina professor-o'qituvchilarning nafaqat ta'lim jarayonidagi balki ilmiy, maslahat va innovasion faoliyatdagi faol ishtiroklari hisobiga erishiladi. Bizda fanning fundamental va amaliy tadqiqotlarga bo'linishi tushunchasi ildiz otgan holda "sof fan" ning tadbirkorlik faoliyati imkoniyatlari deyarli mavjud bo'lmagan.

Yaqin-yaqinlargacha OTMlarning elita maqomini olish jarayonlari faqatgina ushbu OTMning reputasiyasi(nufuzi)ga asoslangan, ya'ni hyech qanaqasiga OTMning mutaxassislar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, yangi texnologiyalarni qo'llash va joriy etish sohasidagi yuqori maqomini aniqlash uchun hyech qanaqa obyektiv baholashlar bo'lmagan.

OTMning ustuvorligini aniqlovchi birinchi xususiyati – bu eng zo'r talabalar va yuqori malakali o'qituvchilar ommasining mavjudligidir.

Shu sababli bu borada o'ziga xos asosiy jihat - bu universitetlarning mustaqil ravishda eng yuqori akademik ko'rsatkichlarga ega talabalarni tanlab olish imkoniyatiga egaligi hisoblanadi.

Masalan, Pekin universiteti har yili har bir provinsiya(viloyat)dan eng zo'r 50 talabalarni qabul qiladi. Garvard universiteti, Kaliforniya texnologiya instituti, Massachusetts texnologiya instituti va Yel universiteti faqatgina akademik qobiliyatini sinash bo'yicha testdan eng yuqori ko'rsatkichlarni olgan abituriyentlarni qabul qilishadi.

Jahon darajasidagi universitetlar magistrantlarni saralashga ancha sinchkovlik bilan yondashishadi, bu esa o'z navbatida amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlar sifat darajasini oshirishda o'z aksini topadi.

Talabalar va o'qituvchilarning cheklangan ichki safarbarligi(mobilligi)ga ega OTMlarda akademik boshi bekrlik xavfi mavjud bo'ladi. Masalan, 2007 yilda yevropa universitetlarida olib borilgan tadqiqotlar eng yuqori endogam(o'qituvchilar orasida ushbu OTM bitiruvchilarining mavjudligi) foizga ega universitetlar eng past ko'rsatkichlarni ko'rsatishgan.

Xalqaro komponent birinchi o'ringa chiqadi. Bu OTMlarga o'zi bilan birga yangi g'oyalar va yondashuvlarni olib kelishgan bir muncha qobiliyatli kishilarni jalb etishga imkon bergan.

Umumiy ta'lim oluvchilar tarkibida xorijiy talabalar ulushi,%da

- Kolumbiya universitetda-23 %
- Stenford universitetida -21 %
- Garvard universitetida -19 %
- Kembridj universitetida – 18 %

Germaniyada xorijiy talabalar ulushi 10 foiz atrofida bo'lsa, jahon reytinglarida yuqori o'rinlarni egallaydigan AQSh universitetlarida xorijlik o'qituvchilar sezilarli ulushga ega. Masalan, Fransiyadagi barcha olimlarning atigi 7 foizi va Germaniyada esa 15 foizi xorijliklar ekanligi isbotlangan. Faqat dunyoning eng zo'r universitetlari xorijiy talabalar va o'qituvchilarning eng zo'rlarini tanlash asosida qabul qilishadi.

Jahon darajasidagi eng zo'r universitetlarning aksariyatini tavsiflovchi ikkinchi omil – bu resurslar bilan ta'minlanganlikning yuqori darajasi hisoblanadi. Bunday universitetlar moliyalashtirishning to'rtta asosiy manbalariga ega:

- joriy xarajatlarni va ilmiy tadqiqotlarni davlat byudjetidan moliyalashtirish;
- shartnoma asosida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlardan kelib tushadigan daromadlar;
- universitetlarga beg'araz beriladigan mablag'lardan keladigan daromadlar;
- ta'lim olish uchun to'lov.

G'arbiy Yevropada davlat mablag'lari akademik va ilmiy faoliyatni moliyalashtirishning asosiy manbasi hisoblanadi.

Masalan, 2000 yilda Germaniyada ta'limga sarflangan sarf-xarajatlar YaIMning 5 %ni tashkil etgan holda bu bir talabaga 5,5 ming yevro atrofida bo'lgan. OTMlar faoliyatini moliyaviy ta'minlashning aksariyat qismini yerlar o'z zimmalariga olishadi. OTMlarning yillik byudjeti yerlarning tegishli parlamentlari tomonidan qabul qilinadigan yerlar byudjetining bir qismi



hisoblanadi. Shu bilan bir vaqtda fan bo'yicha Kengash federal markaz va yerlar tomonidan hamkorlikda moliyalashtirilishining bajarilishini talab etadigan qator vazifalarni aniqlaydi.

Ularga avvalo, OTMlarni yaratish va kengaytirish, ularning infratuzilmasini takomillashtirish, universitet klinikalari va tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlashlar kiradi.

Tadbirkorlik universiteti mahalliy va global dunyoda strategik hamkorlarni izlash, ya'ni qachonki ularning kelishlarini kutmasdan ularga o'z hamkorligini taklif etish orqali o'zi hamkorlar bilan o'zaro munosabatlarning yangi madaniyatini shakllantirishi lozim. Shuningdek, tashqi aloqalardagi institusional o'zgarishlarni amalga oshirgan holda "chegarasiz oliy ta'lim", "ochiq ta'lim" va shu kabi dasturlarni amalga oshirishi lozim. Hukumat bilan avtomonlik va maqom, davlat grantlari, professor-o'qituvchilar va talabalar mobilligi masalalari va soliqqa tortish, kreditlash, lizing va boshqa masalalar bo'yicha muzokaralarni olib borishi zarur. Sababi rivojlangan mamalakatlarida universitetlar alohida hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi muvaffaqiyatining muhim *tezlashtiruvchisi* hisoblanadi.

Bugungi kunda tadbirkorlik universitetlarini baynalminallashtirishning maqsadi - o'zida ijodiy, tadbirkorlik va kommunikativ ko'nikmalarini mujassamlashtirgan *"global innovatorlar"* sifatiga ega bo'lgan bitiruvchilarni tayyorlashdan iborat. Jahonning globallashuvi – talabalar jahon fuqarosi- xalqaro standartlardagi diplomlar tushunchasini keltirib chiqarmoqda.

Universitetlar orasidagi xalqaro hamkorlikning muhim yo'nalishi bo'lib sivilizatsiyalararo sinergiya -G'arb va Sharq qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirish hisoblanadi. Turli mamlakatlarning ma'lum sohalar amaliyotidagi yetakchi professorlarining o'zaro mustahkam aloqalarini o'rnatish, ya'ni *"to'rsimon ta'lim konsepsiyasi"* ning asosiy tashkil etuvchisi hisoblangan xalqaro darajadagi loyihalar bilan ishlash bunga misol bo'ladi. Bugungi kunda jahondagi eng mashhur ta'lim platformasi Massive Open Online Courses (MOOC) hisoblanadi. Bundan tashqari INSEAD, UDEMY xorijiy onlayn-ta'limi ham turli mamlakatlardan millionlab talabalarga ega. Universitetlar jahon ta'lim makoniga qo'shilishi uchun qator masalalarni hal etishlari lozim.

### Xulosa va takliflar.

Xozirgi davrda har bir mamlakat oldida global bozorning ayovsiz talablariga javob berish uchun, ya'ni xalqaro musobaqalarning yangi shakli - *"yangi texnologiyalar va ta'limni quvish"* jarayonida *"bosimga tushgan"* holatda qolmaslik masalasi kun tartibida turibdi. Bu o'z navbatida bugungi davr talablariga javob beradigan, ya'ni nafaqat mamlakat ichkarisida balki xalqaro darajada faoliyat yurita oladigan yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash masalasini birinchi o'ringa qo'yadi.

### Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Farmon (2019) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.

Mirziyoev Sh.M. (2016) Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII s'ezdidagi ma'ruzasi. 21 oktyabr, "Xalq so'zi".

Qaror (2018) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori. № PQ-3775. 05.06.2018 y.

Qonun (2020) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 23 sentyabr 2020 yil. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. 13-bet.

Uzmarkaz.uz. (2018). Oliy ta'lim islohotlari: muammolar, o'zgarish va yutuqlar. [online] Available at: <https://uzmarkaz.uz/uzc/news/oliy-talim-islohotlari-muammolar-ozgarish-va-yutuqlar>

Ахунова Г.Н (2005) Ўзбекистонда таълим хизматлари маркетинги муаммолари. Монография. – Т.: Иқтисод-Молия.

Жих Е. М., Панкрухин А. П., Соловьев В. А. (1991) Маркетинг: как завоевать рынок? - Л.: Лениздат. -47-б

Каҳҳоров О. (2019) Олий таълим муассасалари маркетинг фаолияти самарадорлигини бошқариш. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr.

Қаршиев Р. (2001) Иқтисодий таълимотлар тарихи (маърузалар матни). СамКИ, Самарқанд. 104 б.

Саъдуллаева Г.С. (2021) Олий таълим хизматлари бозорини ривожлантиришнинг маркетинг стратегияси. 08.00.11 – Маркетинг, 08.00.05 – Хизмат кўрсатиш тармоқлари иқтисодиёти. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. -Тошкент, ТДИУ.

Светунькова С.Г. (1999) Информационное обеспечение управления конкурентоспособностью / Энциклопедия маркетинга.

Юданов А.Ю. (2001) Конкуренция: теория и практика: Учеб. – практ. пособие. 3-е изд., испр. и доп. – М.: Казаков: Гном и Д. – 29-30 с.